



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

TALABALARNI MA’NAVY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARINI AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISHNING INTERFAOL TEXNOLOGIYALARI

Abdullayeva Malika Ravshanbekovna, Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. maqolada talabalarni ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida takomillashtirishning interfaol texnologiyalari, ta’lim munosabatlarini tartibga solish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zining ma’naviy-axloqiy kompetentsiyasini yuksaltirish haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika fani konsepsiyasi, talabalar, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, metodika, takomillashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentsiya.*

Аннотация. В статье изложены идеи об интерактивных технологиях совершенствования духовно-нравственных компетенций студентов в процессе внеаудиторных занятий, регулирования образовательных отношений, саморазвитии, а также повышении собственной духовно-нравственной компетентности.

Ключевые слова: концепция педагогической науки, студенты, духовно-нравственное воспитание, методика, совершенствование, духовно-нравственная компетентность.

Annotation. The article presents ideas on interactive technologies for improving students’ spiritual and moral competencies in the process of extracurricular activities, regulating educational relations, self-development, and enhancing one’s own spiritual and moral competence.

Keywords: concept of pedagogical science, students, spiritual and moral education, methodology, improvement, spiritual and moral competence.

Pedagogika fani Konsepsiyasida Jahon va Sharq pedagogik taffakuri, maktab va maktabdan tashqari ta’lim, oila, mahalla hamkorligi pedagogikasi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlari, o‘quvchi shaxsini jamiyat hayotiga tayyorlashning shakl va vositalari, ta’lim-tarbiya metodlari, qonuniyat va printsiplari mujassam tarzda ko‘rib chiqilgan. Konsepsiyada Jahon va Sharq pedagogikasining o‘ziga xos jihatlari, aloqadorlik va umumiylik tomonlari, Sharq mutafakkirlarining G‘arb uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan pedagogik hissalarini inobatga olingan.

Pedagogika fani Konsepsiyasi uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi-maktabgacha ta’lim, maktab, oila, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish tizimida ta’lim-tarbiya va pedagogik ta’limning umuminsoniy hamda milliy xarakterga ega bo‘lgan yagona yo‘nalishini belgilab beradi.

Pedagogika fanining eng dolzarb muammolari bilan uning muhim tarmog‘i bo‘lgan pedagogik antropologiya va ijtimoiy psixologiya shug‘ullanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri-ijtimoiy pedagogika hamda ijtimoiy psixologiya sohasida keng ko‘lamli tadqiqotlarning amalga oshirishdan iborat.

Pedagogika fani ta’lim-tarbiya darajasi hamda shaxsning ma’naviy qiyofasi, uni sotsiokorreksiya qilish yo‘llari va qonuniyatlari, insonning aqliy-intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni har tomonlama o‘rganib, ilmiy jihatdan asoslab berishi kerak.

O‘quvchi va talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash, bilim va aqliy salohiyatini oshirish jarayonini tashkil etish mavjud oqimlarning shaxs taraqqiyotiga, uning axloq-odobi, dunyoqarashiga ta’sirini har tomonlama aniqlash uchun pedagogika fani quyidagi metodlardan keng foydalanishi taqozo qilinadi:

1. Ijtimoiy so‘rov.
2. Intervyu.
3. Anketa.
4. Kuzatish.
5. Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

6. Statistika.

7. Pedagogik diagnostika.

Bu jarayonda pedagogika fani bevosita ijtimoiy psixologiya bilan aloqadorlikda ish ko‘rishi lozim. Chunki, ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ongning muhim qirrasidir. Ijtimoiy ongning ushbu qirra jamiyat a‘zolarining kayfiyati, urf-odatlar, qiziqishlari, ehtiyojlarining ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Pedagogika fani ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning yo‘l va vositalari, qonuniyat va prinsiplarini taqdim qilar ekan, birinchi navbatda, o‘quvchi hamda talabaning ruhiy holatini hisobga oladi.

Bugungi kunda talabalarda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda faqat dars jarayoni yetarli emas. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar bu borada keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagogika fanining zamonaviy konsepsiyasi-talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy hayotda faol ishtrok etishini ta‘minlash va axloqiy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlashni nazarda tutadi. Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotlar:

1. Shaxsiy namuna va real hayotiy holatlar asosida o‘rgatadi
2. Talabaning axloqiy qaror qabul qilish tajribasini shakllantiradi
3. Yoshlar o‘rtasida jamoaviylik, mehr-oqibat va ma‘suliyat tuyg‘usini kuchaytiradi

1-jadval

Interfaol texnologiyalar turlari va ularning tarbiyaviy afzalliklari

Interfaol texnologiya	Tatbiq etish shakli	Tarbiyaviy natijalar
Debatlar va munozaralar	Ijtimoiy, axloqiy mavzularda guruh bahslari	Fikr bildirish, eshitish, axloqiy mulohaza yuritish
Ro‘l o‘yinlari (role-play)	Hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish	Vijdoniy tanlov, empatiya, shaxsiy javobgarlik
“Case-study” (vaziyat tahlili)	Axloqiy muammolar tahlili (masalan: halollik, do‘stlik)	Tahlil qilish, axloqiy mezonlarni qo‘llash
Treninglar va psixologik mashg‘ulotlar	Muloqot, o‘zini anglashi, hissiy yetuklik	O‘zini anglash, hissiy intellekt, ichki motivatsiya
Ma‘naviy-ma‘rifiy ekskursiyalar	Muzey, ziyoratgoh, teatga ekskursiyalar	Tarixiy xotira, qadriyatlarga hurmat
Ijodiy loyihalar	Insho, sahna ko‘rinishlari, ijtimoiy video	Ijodkorlik, axloqiy g‘oyalarni ifoda qilish
Ko‘ngillilik faoliyati	Mehribonlik uyi, ekologik aksiyalar	Saxovat, hamdardlik, ijtimoiy ma‘suliyat

Faoliyat shakllari. To‘garaklar va klub faoliyatlari: “Ma‘naviyat va ma‘rifat” to‘garagi, yoshlar yetakchiligi maktabi, “Axloqiy tanlov” klub mashg‘ulotlari.

Ijtimoiy tashabbuslar: “Yoshlik haftaligi”, “Axloqiy elchi” tanlovlari, talabalar forumlari.

Ko‘ngilli va jamoatchilik ishlari: Talabalar yordam guruhlari, ekologik targ‘ibot aksiyalari, axloqiy mavzudagi flashmoblar. Axloqiy mavzudagi flashmoblar – bu ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, talaba yoki yoshlar orasida ma‘naviy-axloqiy ongni uyg‘otish maqsadida tashkil etiladigan tezkor, ommaviy va interaktiv harakatlardir.

Pedagogik shart-sharoitlar. Ma‘naviy-axloqiy interfaol tarbiya samarali bo‘lishi uchun: erkin va ochiq muhit bo‘lishi kerak, pedagogik talabaga hamkor sifatida yondashishi lozim, tasgqi nazoratdan ko‘ra ichki anglash va tanlovga asoslangan tarbiya ustuvor bo‘lishi kerak, faoliyatlar mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilishni rag‘batlantiruvchi bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytish lozimki, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda interfaol texnologiyalarni qo‘llash talabalarni nafaqat bilimli, balki axloqiy qarorlar qabul qila oladigan, jamiyatda faol, vijdonli va komil shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Bu usullar orqali pedagoglar yosh avlod qalbiga insoniylik, mehr, halollik va fidoyilik kabi yuksak fazilatlarni singdirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3864155>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4320700>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi PQ5040-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5344692>

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 - yil 31- dekabrda 1059-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4676839>

5. Abdullayeva M.R. Pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning huquqiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi. “Pedagogika” jurnali. – Toshkent. 2025 y. 1-son. - 294 -300 b.

